



## O'QUVCHILARDA MILLIY VATANPARVARLIK TUYG'USINI SHAKLLANTIRISHDA TARIXIY OBIDALARNING ROLI

**Hamidova Muyassarbonu Odiljon qizi**

*Toshkent ORIENTAL Universiteti*

*Tarix sirtqi fakulteti talabasi*

**Annotatsiya:** Bugungi kunda o'zbek xalqining asrlar davomida shakllangan umuminsoniy ma'nnaviyati va milliy qadriyatlarini yoshlari ongiga singdirish yoshlarni vatanparvar, barkamol inson qilib, tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada o'quvchilarda milliy vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda tarixiy obidalarning roli va ahamiyati haqida mulohaza yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** vatan, obida, tarix, vatanparvarlik, yoshlari, vazifa, o'quvchi, tarbiya, qadriyat, dars, turizm, siyosat.

Yoshlarning ta'lif-tarbiyasi har bir ota-onaning, o'qituvchi, tarbiyachining Vatan oldidagi muqaddas burchidir. Olib borilayotgan islohatlarning vazifasi Respublikamizda o'sib kelayotgan yosh avlodning orzu-istiklariga monand ta'lif tarbiyaning ham nazariy, ham amaliy muammolarini milliy qadriyatlar asosida to'g'ri hal etishga qaratilgan.

Barkamol avlodni tarbiyalash g'oyat nozik san'at bo'lib, unga juda jiddiy yondashish kerak. Yosh avlodning dunyoqarashini shakllantirishda milliy istiqlol mafkurasidan foydalanish maqsadga muofiqdir. Negaki, milliy mafkuraning bosh negizi yosh avlod ruhini tarbiyalashdagi bosh omillaridan biridir. Farzandlarimizni tarbiyalash va ularning shaxsini har tomonlama kamol toptirish barcha umumta'lif maktablari zimmasiga yuklatilgan. Bu vazifalar o'quvchilarda barcha qobiliyatning o'sishiga, ijodiy intilishni vujudga keltirishga asosiy omil bo'lib hisoblanadi. Ilg'or g'oyalarni davrimizda ro'y berayotgan o'zgarishlarni, shuningdek, tarixiy mavzularni zamонавији ruhda tushuntirish o'g'il va qizlarda g'oyaviy e'tiqodni ma'nnaviy dunyoqarashni tarbiyalash uchun boy manba bo'lib hisoblanadi. Shundagina yosh avlod ruhiga his-hayajonli ta'sir ko'rsatadigan ularda mardlik, jasurlikni, tashabbuskorlikni tarbiyalaydigan mustahkam milliy tarbiya tizimi tarkib topadi.

Vatanimiz tarixi shundan dalolat beradiki, hamma davrlarda ham xalqni birlashtirishga qaratilgan qiyinchilik va mashaqqatlarni yengib o'tishga yordam beruvchi, bog'lovchi omillardan biri vatanparvarlik bo'lgan.

Yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash muammozi bugungi kunda mamlakatimiz davlati, jamiyati va ta'lif muassasalarining dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Maktab o'quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash o'quvchilarda yuksak vatanparvarlik ongini, o'z vataniga sadoqat tuyg'usini, vatan manfaatlarini himoya qilish bo'yicha o'z fuqarolik burchi va konstitutsiyaviy majburiyatlarini bajarishga tayyorligini shakllantirishga qaratilgan tizimli va maqsadli faoliyatdir.

Vatanparvarlik tarbiyasining maqsadi shaxsda fuqarolik mas'uliyatining, ma'nnaviyatning yuksak ijtimoiy faolligini rivojlantirish, ularni ijodiy jarayonda,

vatan manfaatlari yo‘lida namoyon etishga qodir ijobiy qadriyatlar va fazilatlarga ega shaxsni shakllantirishdir.

Tarix darslari o‘quvchilarda fuqarolik, vatanparvarlik tuyg‘ularini tarbiyalashga hissa qo‘sishiga qaratilgan. O‘quvchi vatan g‘oyasini o‘zlashtirib, unda mehr muhabbat, ishtiyoy tuyg‘ulari shakllanadi, vatanning buguni va kelajagi haqida qayg‘uradi, o‘z qadr-qimmatini ko‘taradi, vatan qahramonlaridek bo‘lishga intiladi.

Tarix darslarida vatan qahramonlarining jasoratlari, xalqning ajnabiy bosqinchilarga qarshi qahramonona kurashi, olimlar, iste’dod sohiblari – vatandoshlarning erishgan yutuqlari tarix darslarida bolalar uchun vatanparvarlikning ajoyib namunasidir. Deyarli hech bir tarix darsi munosib shaxslarni o‘rganmasdan o‘tmaydi. Qahramonlarning jasoratlarini ochib berish, o‘quvchilarni olis ajdodlarimiz va yaqin o‘tmishdoshlarimiz nima uchun vatan manfaati yo‘lida o‘z boyligini, muhabbatini, hayotini fido qilganliklarini anglab yetishlari zarur.

Madaniy-tarixiy obidalar har bir xalqning milliy qadriyatlarini, moddiy va ma‘naviy madaniyatini o‘zida mujassam etgan muqaddas joylar sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Inson ongida ma‘naviy qarashlarni shakllantirish va rivojlantirishda, uni singdirishda tarixiy-madaniy yodgorliklarning o‘rni beqiyos.

Tarixiy obidalar – ma‘naviyatimiz ko‘zgusi. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, ajdodlarimizdan qolgan madaniy tarixiy merosga e’tibor kuchaydi, tarixiy yodgorliklar davlat nazorati ostiga olindi. Istiqlol yillarda Buxoro, Samarcand, Termiz, Xiva, Toshkent, Qo‘qon, Shahrisabz kabi shaharlarda ulug’ ajdodlarimizning yuksak iste’dodi bilan bunyod etilgan obidalar o‘zining haqiqiy qadr-qimmatini topdi, ularni ta’mirlash va asl qiyofasini tiklash davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

Toptalgan tariximiz, qutlug’ qadamjolar, hatto nomlari ham unutilayozgan obidalar ta’mirlandi, qayta tiklandi. Imom al Buxoriy, Imom at-Termiziyy, Abu Mansur al-Moturudiy, Ahmad al-Farg’oniyy, Burhoniddin al-Marg’inoniy, Mahmud az-Zamaxshariy kabi ulug’ allomalarimizning sha’nlariga munosib yodgorlik majmualar yaratildi. Toshkent, Samarcand va Shahrisabzda Sohibqiron Amir Temur, Toshkentda Mirzo Ulug’bek, Alisher Navoiy, Urganchda Jaloliddin Manguberdi, Termizda Alpomish haykallari qad ko’tardi.

Bugungi kunda mamlakatimizda yetti mingdan ortiq yodgorlik, shu jumladan, 2500 ta me’moriy obida, 2700 tadan ortiq monumental san’at asari davlat muhofazasiga olingan. 1991 yildan Xivadagi Ichonqal'a qo‘riqxonasidagi, 1993 yildan Buxoro shahri markazidagi, 2000 yildan Shahrisabz shahri markazidagi yodgorliklar Yuneskoning “Umumjahon madaniy merosi” ro‘yxatiga kiritildi.

Barcha sohalarda ulkan islohotlar va yangilanishlar amalga oshirilayotgan hozirgi davrda mamlakatimizda ziyorat turizmini rivojlantirishga ham alohida e’tibor qaratila boshlandi. Chunonchi, bugun matbuotda yoki kundalik muloqotda «turizm», «ziyorat turizmi», «gastronomik turizm», «ekologik turizm» kabi atamalarni qo’llash keng ommalashdi.

O‘tmish yodgorliklari ya‘ni madaniy-tarixiy obidalarning qayta tiklanishi, u yerkirada sayyoohlarni yanada kengroq jalb etish hamda sohani yanada takomillashtirishning yangi bosqichga ko‘tarilishi, ushbu madaniy meros obyektlarining bugungi kunda mamlakat rivoji

va aholi turmush tarzida o'rni muhim ekanligini ko'rsatmoqda. Ayniqsa, bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining alohida Farmoni va tegishli qarorining qabul qilinishi yurtimizdag'i madaniy-tarixiy obidalar imkoniyatlaridan yanada kengroq foydalanishni, yoshlar ongida bunday muqaddas qadamjolar to'g'risidagi tasavvurlarni yanada boyitish va rivojlantirishda muhim qadam bo'ldi.

So'nggi yillarda tarixiy merosimizni asrab avaylash, madaniy meros obyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish, ularni ta'mirlash va obodonlashtirish, jumladan, ziyorat turizmi sohasini ravnaq toptirishga, shu orqali aholi turmush tarzini yaxshilash, ular uchun munosib hayot asoslarini yaratib berish borasida «O'zbekiston bo'ylab sayohat qil!» dasturining qabul qilinishi ushbu masalalarga bugungi kunda davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilayotganligidan dalolatdir. Bu esa ushbu yo'nalishdagi ishlarni jadallashtirish nuqtayi nazaridan ajdodlarimizning tarixiy an'analariga hamda tajribalariga tayangan holda ish olib borish zaruratini tug'dirmoqda.

Mazkur omillar jamiyatimizda kechayotgan jadal islohotlar sharoitida o'zbek xalqining an'anaviy, moddiy va ma'naviy madaniyati durdonalarini ta'lim muassasalarida o'rganishni taqozo etmoqda.

Madaniy-tarixiy obidalar fuqarolar, ayniqsa, yoshlar ongida ko'plab ma'naviy, axloqiy sifatlarni shakllantirishi, shubhasiz.

Xulosa qilib aytganda, maktabda tarix fanini o'qitishda mavzuni tarixiy obidalar bilan bog'lash va ularga bog'liq malumotlarni berish o'quvchilarda o'zlari mustaqil va ijodiy fiklashini rivojlantirishga, miliy ong va tafakkurni o'stirishga, eng asosiysi ma'naviy barkamol shaxsni, haqiqiy vatanparvar insonni tarbiyalab voyaga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, bu boradagi bilimlar o'quvchilarni vatanparvarlik, milliy g'urur va iftixon, ma'naviy-axloqiy ruhda tarbiyalaydi, ularda yurt taqdiriga daxldorlik sifatlarni shakllantiradi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. I. A. Karimov "O'zbekiston buyuk kelajak sari" T.1998 y.
2. I. A. Karimov "O'zbekiston havfsizlikka taxdid va barqarorlik shartlari" T.1999.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-fevraldagi «Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori. [www.aza.uz](http://www.aza.uz) 5.
- J.G'.Yo'ldoshev, S.A.Usmonov. Pedagogik texnologiya asoslari. -T.: O'qituvchi. 2004.
6. J.G'.Yo'ldoshev. Ta'lim yangilanish yo'lida.-T.: O'qituvchi. 2000.
7. O.Shoyxonova "Inson va uning ma'naviy dunyosi" 1993 y.
8. Safo Ochil "Mustaqillik ma'naviyati va tarbiya asoslari"
9. J. Q. Yo'doshov "Ta'lim istiqlol yo'lida" T. 1996
10. B. Qodirov " Komil inson tarbiyasining pedagogik asoslari" T.1995